

SANOAT KORXONALRIDA EKSPORT OPERATSIYALARINI MOLIYALASHTIRISH.

*Andijon mashinasozlik institute Iqtisodiyot fakulteti.
Iqtisodiyot kafedirasi Iqtisodiyot yo'nalishi 4- bosqich talabasi
Habibullayev Abdulaziz.*

Quyidagi tezis orqali Tashqi savdo operatsiyalarini moliyalashtirishda zamonaviy bank xizmatlaridan foydalanish hamda Eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish yo'llarini o'rganilgan.

Har bir davlatning eksport salohiyatini oshirishda eksport tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni moliyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, O'zbekistonda eksport bop tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni moliyalashtirish, xususan, eksport oldi kreditlari berish hamda eksport faoliyatini sug'urtalash maqsadida moliya va kapital bozorlarini yanada rivojlantirish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan hisoblanadi. Bank mijozlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga bank xizmatlarining to'liq majmuasini ko'rsatishga katta e'tibor qaratishi zarur. Bank doimiy ravishda mijozlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga ko'rsatiladigan xizmatlarning turlarini kengaytirib borishi va shu bilan birga ushbu sohadagi yangiliklarni amaliyotga joriy etishi kerak. Bank mijozlari – tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari – zamonaviy hisob-kitob instrumentlari hamda texnologiyalar vositasida xorijiy hamkorlar bilan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini yaratish kerak. Bankning malakali mutaxassisleri ularga xorijiy valyutadagi bitimlarni amalga oshirishning har qanday bosqichida o'z maslahatlarni berib borishi hamda bank tizimini rivojlantirishni yo'lga qo'yishi zarur.

Jahon savdo tashkilotining (JST) so'roviga ko'ra, eksport moliyalashtirishning yetishmasligi savdoni rivojlantirishdagi eng katta to'siqlardan biri sifatida qayd etildi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes vakillari moliyaviy mablag'larni olishda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishlari o'z isbotini topgan. Shu bois, har bir mamlakat o'zining tashqi savdo siyosati bo'yicha strategiyasini ishlab chiqishda eksportni moliyalashtirish, shu jumladan eksport oldi kreditlari berish, eksport jarayonlarini sug'urtalash hamda ushbu maqsadlarda davlat tomonidan eksport kredit agentliklarini tashkil etish va eksportni sug'urtalash mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratishi kerak. Savdoni moliyalashtirish mexanizmlari yaxshi ishlaydigan davlatlarda ishlab chiqaruvchi korxonalar tobora kengayib borayotgan global qiymat zanjiriga qo'shilish imkoniga ega bo'ladi hamda bandlik va mehnat unumdorligini oshirishga hissa qo'shadi. Aksincha, eksportni oldindan moliyalashtirish, aylanma mablag'larni to'ldirish imkoniyatlarining mavjud emasligi sababli eksportyorlar ishlab

chiqarish uchun eng yuqori mavsumda yoki kutilmaganda buyurtma kelib tushganda ishlab chiqarishni kengaytirish uchun etarli pul oqimi yo'qligidan xavotirlanadi.

O'zbekistonda ham 2020 yil va undan keyingi 5 yillikda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish, yangi xalqaro bozorlarga chiqish va eksport hajmini ko'paytirish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olindi. Savdo kreditlari olishdagi qiyinchiliklar tufayli narx va sifat jihatidan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarib eksport qila oladigan kichik firmalar faqat ichki bozorda savdo qilishga majbur bo'ladi va raqobatdosh importga nisbatan "himoyasiz" bo'lib qoladi. Odatda eksport qiluvchilarning eksport faoliyatlarini moliyalashtirishda qiyinchiliklarga uchrashi moliya va kapital bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi, ushbu bozorlarda raqobatning nomukammalligi va ma'lumotlarning teng taqsimlanmaganligi bois bozor muvaffaqiyatsizligi bilan izohlanadi. Bunday bozor muvaffaqiyatsizliklari davlat tomonidan moliya va kapital bozoriga oqilonalik bilan aralashuvga asos bo'ladi.

Shuning uchun eksportga asoslangan iqtisodiy rivojlanish yo'lidan borgan mamlakatlarda eksport qiluvchi korxonalar va tashkilotlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida eksport kredit va sug'urta agentliklarini tashkil etishgan. Ushbu mamlakatlarda davlat aralashuvi ishlab chiqarish omillari narxlarini o'zgartirib, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirgan hamda iqtisodiyotning optimal ishlab chiqarish darajasigacha ko'tarilishiga xizmat qilgan.

Ushbu tezisda eksportni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashda savdoni moliyalashtirish, xususan eksport oldi kreditlari va sug'urta xizmatlarining roli borasida so'z yuritiladi. Shu bilan birga, bozor muvaffaqiyatsizligi sababli eksport faoliyatini kreditlashdagi qiyinchiliklarni davlat tomonidan eksport kredit agentliklarining tashkil etilishi orqali bartaraf etish bo'yicha jahon tajribasi haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, hozirgi kunda O'zbekistonda eksportni moliyalashtirish amaliyoti hamda yangi tashkil etilayotgan Eksport-kredit agentligi va Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining ishlash mexanizmlari tushuntiriladi.

O'zbekistonda ham eksport hajmini oshirishda eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda eksport qiluvchi kompaniyalarning eksport faoliyatlarini moliyalashtirishning yagona manbai bank kreditlari bo'lib qolmoqda. Tijorat banklari tomonidan savdo kreditlari bilan bir qatorda aylanma mablag'larini to'ldirish (xom-ashyo va materiallar, butlovchi qismlar va eksport faoliyati bilan bog'liq shu kabi xaridlarni moliyalashtirish) uchun qisqa va uzoq muddatli kreditlar va kredit liniyalari taklif etilmoqda.

Masalan, 2022 yildan boshlab "O'zsanoatqurilishbank" va Tojikistonning "Oriyon" banklari tomonidan O'zbekistondan Tojikistonga tovarlar va xizmatlar eksporti bilan bog'liq bitimlarni moliyalashtirish uchun kreditlar taqdim etib kelinmoqda.

Shunga qaramasdan, tijorat banklarida moliyaviy resurs bazasining yetishmasligi tashqi savdoni kreditlash imkoniyatlarini cheklamoqda. Shuning uchun, moliyaviy to'siqlarning mamlakatimiz eksport salohiyatiga ta'sirini yumshatish maqsadida xalqaro moliya tashkilotlaridan moliyaviy mablag'lar jalb qilinmoqda. Xulosa qilib aytganda har bir davlatning eksport salohiyatini oshirishda eksport tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni moliyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, O'zbekistonda eksport tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni moliyalashtirish, xususan eksport oldi kreditlari berish hamda eksport faoliyatini sug'urtalash maqsadida moliya va kapital bozorlarini yanada rivojlantirish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, eksport faoliyatini moliyalashtirishda ba'zida bozor mexanizmining muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkinligini hisobga olib davlat tomonidan Eksport kredit agentligi va Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining tuzilishi eksportni rag'batlantirishga hamda eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 04 oktyabrdagi 845-sonli "Savdoni moliyalashtirish xalqaro islom korporatsiyasi mablag'laridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 30 yanvardagi 46-sonli "“O'zbekinvest” eksport-import milliy sug'urta kompaniyasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.*
3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 maydagi PQ-4337-sonli "Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.*